

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024**

**PEDAGOGIK JAMOADAGI NIZOLAR VA ULARNI OLDINI OLISHDA MAKTAB
PSIXOLOGINING O'RNI**

Xamidova Ominaxon Maxamadazizovna

*Andijon viloyati Qo'rg'on tepa tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limiga
garashli 36-umumiyo'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixolog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jamoadagi nizolarning turlari va ularni oldini olishda maktab psixologining o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pedagog, jamoa, nizo, jamiyat, stress, psixolog, konflik turlari.

Ba'zan jamoalarda shunday bo'ladiki, har biri o'z-o'zidan ishlaydigan xodimlar bor, lekin jamoa yo'q. Qoidaga ko'ra, tez-tez uchraydigan nizolar ishchilarning birligiga to'sqinlik qiladi. Hozirgi davrda mamlakatimizda ta'lim sohasi tobora rivojlanib borayotgan bir davrda malakali kadrlarga bo'lган ehtiyoj pedagogik sohada yana ham oshib bormoqda. Xususan, pedagogik mahorat va saviyani yuksaltirish borasida ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda.

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri - nizo sanaladi. Nizo - qarama-qarshi, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan kuchlar to'qnashuvi, ikki yoki undan ko'p taraflar orasida o'zaro kelishuvning yo'qligini, manfaatlar to'qnashuvini ifodalovchi ziddiyat.

Pedagogik nizo bu - pedagog va o'quvchi, ota-on, hamkasblar yoki rahbariyat o'rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to'qnashuvi, o'zaro qarama-qarshilik o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi kelishmovchilik, tortishuv va mojarodir. O'qituvchi har tomonlama tarbiyalangan, aqliy, axloqiy, ma'naviy jihatdan yetuk, bilim doirasi keng, nutqi ravon, pedagogik bilim mahorat egasi bo'lishi lozim. Pedagogik nizolar o'qituvchi faoliyatida kasbiy deformatsiyaning paydo bo'lishiga turtki beradi. Nizolar muntazam ijobiy o'z yechimini topmasa, o'qituvchining shaxsiyatida stresslar, ruhiy taranglik, hissiy kuyish sindromini keltirib chiqarishi mumkin.

Pedagogik nizo bu o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida muammolar tortishuvlar, kelishmovchiliklar bo'lib o'qituvchi shu muammolarni oldini olishi, unga yo'l qo'ymasligi, va shu muammolarni yechimini topishi kerak. Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos bo'lган asosiy belgilari quyidagilardir:

Inqiroz; anglashilmovchilik; kutilmagan hodisa; zo'riqish; noqulaylik; ichki yoki tashqi xavotir; bartaraf etish qiyin bo'lgan qo'rquv.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'qituvchilik kasbini yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriq darajada turadigan faxrli kasb hisoblaydi. A.Navoiyning fikricha "Gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi. Muallim esa, bir guruh bolalarga ilmu - adab o'rgatadi. Bu jarayonda muallim ko'p aziyat chekadi, mashaqqatlarni o'z boshidan kechiradi. Shu bois shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari darkor".

Shogird podsholik martabasiga erishsa ham, muallimga qulluq qilsa arziydi deydi. Hazrat A. Navoiy bolalarga yaxshilik qilish, o'qituvchilik sha'ni, qadr qimmati, o'qituvchilik ma'suliyati, o'qituvchilik vijdoni, talabchan va adolatlari bo'lishi o'qituvchining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilalar o'qituvchi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirishi bo'lajak o'qituvchi uchun katta amaliyat ahamiyat kasb etadi. Otabobolarimiz doimo yaxshi niyat yaxshi orzu-istiklar bilan yashaganlar. O'zlaridan yaxshi nom goldirishga intilganlar.

Hozirgi kunda pedagogikada nizolarni to'rt turlari ko'rsatiladi:

- ichki shaxsiy, shahsning kuchi bo'yicha tahminan teng motivlari, qiziqishlari, ishqibozligi, manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi;
- shaxslararo, o'z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shahslarni ifoda etadi;

**INTERNATIONAL CONFERENCE PEDAGOGICAL REFORMS AND
THEIR SOLUTIONS**
VOLUME 3, ISSUE 1, 2024

- guruhlararo, biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko‘zlagan va ularni amalga oshirish yo‘lida bir-biriga to‘sinqlik qiluvchi ijtimoiy guruhlar nizo tomonlari sifatida ishtirok etishlari bilan ajralib turadi;

- shaxsiy-guruhli-shaxsnинг hulqi guruh qoidalari va umidlariga mos kelmasligi holatlarida yuzaga keladi. Pedagogik jarayon o‘ziga xos murakkab ijtimoiy tuzilma bo‘lib, shaxslararo aloqalarning doimiy jarayonidan iboratdir. Albatta, bu jarayonda ikki sub’ekt o‘rtasidagi munosabatlarni ijobiy shakl doirasidan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi.

Pedagogik konflikt pedagogik jarayonda shaxslararo munosabatlarning keskinlashuvi natijasi sifatida yuzaga keluvchi muamoli vaziyatdir. Pedagogik konfliktlarning quyidagi shakllari yuzaga keladi: **o‘quvchi-o‘quvchi; o‘quvchi-o‘qituvchi; o‘qituvchi-o‘qituvchi va o‘qituvchi-ota-onा.**

Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar:

- axborot omili;
- munosabat omili;
- xulq-atvor omili.

Pedagogik nozilarni bartaraf etishda o‘qituvchining nutq madaniyatli alohida ahamiyatga ega. Ya’ni, o‘qituvchining dastlabki o‘quv-tarbiya ishlaridagi natijalarida, nutq madaniyatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qo‘yilishida, harakatidagi mimik va pantomimik holatlarda ro‘y beradigan nuqsonlar e’tirof etiladi. Bunda natija yaxshi bo‘lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo‘ladi. O‘qituvchining nutq madaniyatiga ega bo‘lishi, to‘g‘ri nafas olishni ishlab chiqishi eng katta va eng asosiy qiymatdir. Og‘zaki nutq mahoratini yuksaltirish, nafaqat hikoya va tushuntirish, balki urg‘u berilgan so‘z ham pedagogik ta’sir usullaridan yaxshiroq foydalanishga imkon yaratadi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizo va tushunmovchiliklarga barham beradi. Pedagog o‘zining ovozi va ko‘rinishini boshqarishni bilishi, tashqi qiyofani, mimikani ushlab turishni bilishi zarur. **“Men faqat “buyoqqa kel” so‘zini 15-20 xilda gapira olganimdan, yuz, tashqi qiyofa va ovozni 20 xil ko‘rinishda bera olganimdan so‘nggina haqiqiy mahorat egasiga aylandim”**-degan A.S. Makarenko.

Pedagogik nizolarni muvaffaqiyatli hal qilish odatda muammoni aniqlash, uni tahlil qilish, uni hal qilish bo‘yicha harakatlar va natijalarni baholash siklini o‘z ichiga oladi. Har qanday aniq bir vaziyatda nizolarni hal qilish bo‘yicha siyosatni ishlab chiqishga kirishishdan avval ularning manbalarini aniqlash zarur. Pedagog va ta’lim oluvchi pozitsiyalarining to‘g‘ri kelmasligi ko‘p konfliktlarga sabab bo‘ladi, shuning uchun konflikt vaziyatlarda qo‘llaniladigan sinalgan quyidagi qoidalarni bilish talab etiladi. **Quyidagi qoidalardan xabardorlik pedagogik jarayonda yuzaga kelgan nizolarni muvafaqqiyatli hal qilishga hizmat qiladi.**

Birinchi qoida. Konflikt vaziyatini o‘z qo‘liga olish. Bu emotsiyal taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Buning uchun ortiqcha jismoniy zo‘riqishdan, ortiqcha xatti-harakatlardan halos bo‘lish kerak. Mimika, poza, jestlar faqatgina odamning ichki kechinmalarini ifodalab qolmay, unga ta’sir ham ko‘rsatadi.

Ikkinci qoida. O‘z xatti-harakatlari bilan sherigiga ta’sir ko‘rsatish. Bunda ishtirokchining yuzini diqqat bilan o‘rganib chiqish yordam beradi, fikrni jamlaydi va uning holatini aniqlashga imkon yaratadi.

Uchinchi qoida. Hamsuhbatning xatti-harakatlari motivlarini tushuna olish. Aqliy tahlilning ishga solinishi emotsiyal qizishni pasaytiradi. Yaxshisi holatning murakkabligini tushunganligini ifoda etish, o‘z holatini tushuntirish.

To‘rtinchi qoida. Maqsadni muvofiqlashtirish. Ta’lim oluvchi bilan sizni birlashtiruvchi narsani tezroq anglash va uni ko‘rsatish.

Beshinchi qoida. Samarali yechim borligiga ishonishingizni namoyish qilishdan iborat.

Pedagogik nizolarni bartaraf qilishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin:

- nizoning ta’sir doirasini kengaytirmaslik;
- qulay yechimlarni taklif qilish;

- man etilgan usullarni qo'llamaslik;
- shikoyatlar sonini qisqartirish;
- ikkinchidagi darajali masalalarini ham uzviy ravishda hal qilib borish;
 - nizoga kirishgan sub'ektlar shaxsini kamsitadigan so'zlardan foydalanmaslik.

O'qituvchining imidji va nutq xarakteristikasi, madaniy saviyasi atrofdagilarga uning shaxsi to'g'risida ma'lumot berish bilan birga, o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchining imidjida soddalik, tartiblilik, bejirimlik aks etishi kerak. **Shunga bog'liq holda nizoni hal qilishning quyidagi pedagogik usullari ajratiladi:**

- suhbat qilish;
- iltimos qilish;
- ishontirish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik nizolarni bartaraf etish masalasida nafaqat didaktik, pedagogik va psixologik yondashuvlar, balki mahorat va muloqot madaniyati ham alohida o'rinni egallaydi. Albatta, maqsadga muvofiq muloqotning tashkil qilinishi va ob'ektga nisbatan yaxshi muomala pedagogik vazifalarni hal etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni bartaraf etish uchun eng samarali usul hisoblanadi. O'qituvchi hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. O'qituvchining biror tasodifiy xatti-harakati natijasida o'quvchilarda u haqda sodir bo'lgan fikr ham ta'lim-tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir etishi, o'qituvchining ishini murakkablashtirishi mumkin. Odatda, bunday ziddiyatlar uzoq davom etadi va o'qituvchi foydasiga hal etiladi. O'qituvchi obro'sini saqlayman deb, kattalar ba'zan o'quvchining qadr-qimmatini yerga uradilar, o'quvchidan kechirim surashni talab etadilar, vaholanki bu nizoga o'qituvchining noto'g'ri xatti-harakati sabab bo'lgan. O'qituvchining ishi axloqiy tarbiya talablariga to'g'ri kelmaydi. Bolalar bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashishish lozim. Agar o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tinglasa, o'z-o'zini ham tarbiyalaydi. Demak, tinglash jarayoni ko'pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas. Tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar g'oyalarning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ma'ruzachi o'qituvchining har bir chiqishi va ma'ruzasi agar o'quvchilar tomonidan diqqat bilan tinglasa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi. Pedagogik nizolardaadolatsizliklarga, ijtimoiy munosabatlardagi yakkahokimlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi

O'QITUVCHI BILAN O'QUVCHI MUNOSABATI

Maqsad: O'qituvchi-o'quvchi metodi asosida jamoada psixologik muhitni o'rghanish.

Jihoz: Test, javob varaqasi, sekundomer.

Yo'riqnomma: Har bir keltirilgan mulohazani diqqat bilan o'qing va o'qituvchingiz bilan munosabatingizga mos kelishi hamda mos kelmasligiga ko'ra «**HA**» yoki «**YO'Q**» deb javob bering

1. O'qituvchim shogirdlarining yutuqlarini oldindan ko'ra oladi.
2. O'qituvchimga murojat etish men uchun qiyin.
3. O'qituvchim adolatli inson.
4. O'qituvchim menga bilim berishga mohirona yondashadi.
5. O'qituvchimning o'quvchilar bilan munosabatlarida aniqlik yetishmaydi.
6. O'qituvchimning so'zi men uchun qonun.
7. O'qituvchim men bilan qunt qilib ishlaydi.
8. Men o'qituvchimdan minnatdorman.
9. O'qituvchim menga nisbatan talabchan emas.
10. O'qituvchim doimo yaxshi maslahatlar beradi.
11. Men o'qituvchimga to'liq ishonaman.
12. O'qituvchimning menga qo'yan bahosini qadrlayman.

13. O'qituvchim bir xil ishlashga o'rganib qolgan.
14. O'qituvchim bilan ishlashdan mammunman.
15. O'qituvchim menga kam vaqt ajratadi.
16. O'qituvchim mening xususiyatlarimni bilmaydi.
17. O'qituvchim mening kayfiyatimni bilmaydi.
18. O'qituvchim mening so'zlarimni doimo tinglaydi.
19. O'qituvchimni yaxshi o'rgatishiga ishonaman.
20. Men o'qituvchimga so'z aytishga jur'at etolmayman.
21. O'qituvchim kichkina aybim uchun ham jazolaydi.
22. O'qituvchim mening kuchli va kuchsiz tomonlarimni yaxshi biladi.
23. Men o'qituvchimga o'xshashni xoxlayman.
24. Men o'qituvchim bilan oshkora suhbatlasha olaman.

Natijalar taxlili:

- | | | |
|---------------------------------|----------------------|-------------------|
| I. Gnostik jihatlar: | «Ha»-1,4,7,10,19,22, | «Yo'q»-13,16 |
| II. Emotsional jihatlar: | «Ha»-8,11,14,23, | «Yo'q»-2,5,17,20 |
| III. Xulqiy jihatlar: | «Ha»-3,6,12,18, | «Yo'q»-9,15,21,24 |

Anketa kalitiga mos kelgan javoblarga 1 ball beriladi. Agar sizning balingiz keltirilgan qiymatlarni biriga teng bo'lsa ushbu faoliyat jihatlari namoyon bo'lishini quyidagi tartibda baholash mumkin:

6-8 ball-yuqori darajada;

3-5 ball-o'rta darajada;

0-2 ball-past darajada

1. Gnostik. Bu jihat yetakchilik qilgan pedagogning faoliyati asosan shogirdlarga bilim berishga, ularning egallayotgan sohasi bo'yicha savodxonligini oshirishga, ko'proq ma'lumotlar bilan qurollantirishga qaratilgan. Ularning nuqtai nazaricha o'qituvchining birinchi navbatdagi vazifasi shogirdlarini xulq-atvori, atrofdagilar bilan munosabatidan ko'ra bilim berish muhim deb hisoblaydi.

2. Emotsional. Bu jihat yetakchilik qilgan o'qituvchi o'quvchilarni narsa va hodisalarga, atrofdagilarga munosabat ko'nikmalarini shakllantirish muhim degan xulosaga egalar. Ular uchun o'qituvchi o'quvchini hayotiy holatlariga tayyorlash, shaxslararo munosabatlarga kirishishga o'rgatish kerak bo'lgan shaxsdir. Ularda o'zaro ishonch va hurmat tuyg'ularini shakllantirish lozim degan mulohaza bor.

3. Xulqiy. O'quvchilarni birinchi navbatda to'g'ri-noto'g'ri nima, ularni xatti-harakatlarini tartibga solish, mas'uliyat va javobgarlik hissini shakllantirish, o'zaro hurmat, qadr-qimmat va insonlarni e'zozlash lozimligini anglatadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. M.T.Axmedova, N.S.Shayzakova Nizolarning yuzaga kelishidagi shart- sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari. Maktab va hayot.-Toshkent.: 2014.2-son. -B. 2-4.
2. Djumaeva S. Ijtimoiy va pedagogik nizolar: mohiyati va bartaraf etish yo'llari. Metodik qo'llanma. – Toshkent., 2011.
3. С.В.Баныкина Педагогическая конфликтология: состояние, проблемы исследования и перспективы развития. М-2018
4. Cyberleninka.ru
5. Google.com
6. Article.uz